

Buxoro davlat universiteti
rektorining ____-sonli buyrug‘iga
2021-yil __-__
4-ilova

**Buxoro davlat universiteti xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi
kurashish borasida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha
USLUBIY KO‘RSATMALAR**

1-bob. Umumiq qoidalar

1. Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha mazkur metodik ko‘rsatmalar (keyingi o‘rinlarda “Uslubiy ko‘rsatmalar” deb yuritiladi) Buxoro davlat universitetining barcha bo‘limlari, fakultetlari, shuningdek, Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyi, Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida (keyingi o‘rinlarda “Universitet tizimi” deb yuritiladi) xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish borasidagi tavsiyalar va ko‘rsatmalarni belgilab beradi.

2. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar korrupsiya harakatlarining oldini olishga va ularning sodir etilishiga olib keladigan sabablarni bartaraf etishga, huquqiy ongni rivojlantirishga va xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Universitet tizimining ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Universitet tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitish dasturlari va materiallari Uslubiy ko‘rsatmalarga muvofiq ishlab chiqilishi kerak.

2-bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari

4. Universitet tizimi xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **ob’ektivlik va ilmiylik** – odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi o‘quv materiallarini tayyorlash uchun mas’ul shaxslar, ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, korrupsiyaga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti sohasidagi xalqaro standartlarga va ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

- **amaliylik** – universitet tizimi xodimlarini odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish shakllari, uslublari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real holatlarga asoslangan bo‘lishi, shuningdek, xodimlar tomonidan olingan materiallarni tushunish va muayyan amaliy muammolarni hal qilishda ularni qo‘llash imkoniyatlari darajasining izchil nazoratini o‘z ichiga olishi kerak;

- **izchillik va tizimlilik** – odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi o‘quv materiallari, shuningdek Universitet tizimi xodimlarini o‘qitish tartibi izchil va tarkibiy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. O‘qitish umumiy tushunchalar va hodisalardan

alohida tushunchalar va hodisalarga, oddiydan murakkabga, asosiydan ilg‘orga o‘tish va shu kabi tamoyillar asosida amalga oshiriladi;

- **tushunarlik** – odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘qitish Universitet tizimi xodimlarini mayjud bilim va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda, Universitet tizimining barcha xodimlari uchun tushunarli bo‘lgan o‘quv materiallarini shakllantirish asosida tuziladi;

- **tabaqalashtirilgan yondashuv** – Universitet tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish muayyan funktsiyalar va jarayonlardagi korrupsiya xavfini baholash natijalarini hisobga oladi. Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha maxsus tayyorgarlikdan o‘tadilar;

- **o‘qitish uslublari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish** – Universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi muassasalar o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitishni amalga oshirishda, shuningdek, Universitet tizimi xodimlarining bilimlarini o‘zlashtirishlarini tekshirishda texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga intilishadi.

3-bob. Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitishning ustuvor vazifalari

5.Universitet tizimi xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘qitish uchun mas’ul shaxslar odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘qitish shakllari va uslublarini belgilashda, shuningdek, o‘quv materiallarini shakllantirishda, quyidagi ustuvor vazifalarni asos qilib olishlari shart:

- korrupsiyaning mohiyati, uning shakllari, jamiyat hayotining turli jabhalarida va funktsiyalarida, hamda Universitet tizimi faoliyatida namoyon bo‘lish xususiyatlari, ushbu hodisaning sabablari, ijtimoiy xavfli va zararli oqibatlari haqidagi umumiy tushunchani shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat’iy va so‘zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini, hamda Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Nizomda, Universitet tizimi xodimlarining axloqiy xatti-harakat qoidalarida va Universitetning, uning hududiy boshqarmalari va uning tassarufidagi markazlar va muassasalarning boshqa ichki hujjalarda belgilab qo‘ylgan odob-axloq va korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish;

- universitet tizimi xodimlarini Universitetda, uning hududiy boshqarmalari va uning tassarufidagi markazlar va muassasalarda amal qiladigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tamoyillar, talablar va tartiblar bilan tanishtirish;

- Korrupsiya xavflarini kelib chiqishiga olib keluvchi holatlarni aniqlash va oldini olish, korrupsiya xatti-harakatlariga, Universitet tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalarini buzilishiga toqat qila olmaslik ko‘nikmalarini shakllantirish.

4-bob. O‘quv materiallarini ishlab chiqish va o‘qitish uchun mas’ul shaxslar

6. Universitet tizimi xodimlarini odob-axloq bo'yicha o'qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek, Universitetda, uning hududiy boshqarmalarida va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarda o'qitishning bunday monitoringi va nazoratini olib borish uchun Universitetdagi, uning hududiy boshqarmalaridagi va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi Xodimlar boshqarmalari (bo'limlari) mas'uldir.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish tadqiqotlari markazining me'yoriy huquqiy nazorat bo'limi (keyingi o'rnlarda "Me'yoriy huquqiy nazorat bo'limi" deb yuritiladi) va universitetning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatorlar/mas'ullar Universitet tizimi xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish jadvallarini tayyorlashda ishtirok etishadi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqishadi, o'qitish jarayotlarini tartibga solishadi, alohida kunduzgi o'quv tadbirlarini o'tkazishadi, shuningdek Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablariga rioya etilishini monitoring qilish va nazorat qilish uslubiga muvofiq Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish jarayonlarini monitoring va nazorat qilishadi.

8. Universitetning kadrlar boshqarmasi va Universitetning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarning kadrlar bo'limlari korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'qish intizomini nazorat qiladi va Universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalar xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qishi to'g'risida ma'lumot to'playdi.

9. Me'yoriy-huquqiy nazorat bo'limi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatorlar/mas'ul xodimlar, Kadrlar boshqarmalari (bo'limlari) odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqishga va o'qitishga tegishli tajribaga ega bo'lgan xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar (Universitet tizimida belgilangan tartibda tuzilgan) asosida uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

5-bob. O'qitish turlari va shakllari

10. Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish quyidagi o'quv dasturlarini o'z ichiga olishi kerak:

- barcha xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan o'quv mashg'ulotlari;
- Universitet xodimlarini Odob-axloq qoidalari bo'yicha umumiyl o'qitishga mo'ljallangan o'quv mashg'ulotlari;
- korrupsiya xavfiga ko'proq moyil bo'lgan lavozimlarni egallovchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan maxsus o'quv mashg'ulotlari;

- Universitet tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishlashiga va rivojlanishiga mas’ul bo‘lgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv mashg‘ulotlari.

11. Universitet xodimlari uchun mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘tish va odob-axloq qoidalari bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘tish Universitet tizimidagi barcha xodimlar uchun majburiy va ular odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni egallahsga, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining asosiy me’yorlari va Universitet tizimining ichki hujjatlari, korrupsiya harakatlari ro‘y bergen holatlarni aniqlaganda harakat qilish qoidalari va tartiblari, shuningdek ularni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilish tartiblari bilan tanishtirishga qaratilgan.

12. Universitet tizimidagi barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlari amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va quyidagi yangi bilim va ko‘nikmalarni olishni yoki mavjudlarini takrorlashni ta’minlashi kerak:

- O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun hujjatlarini, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Universitet tizimining ichki hujjatlarini, shu jumladan o‘rnatilgan taqiqlar, cheklovlar, majuburiyatlar va ruxsatlar, rasmiy xulq-atvorga qo‘yiladigan talablar, Universitet tizimi xodimlarining korrupsiya harakatlari aniqlangandagi harakatlar ketma-ketligini bilish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi borasida huquqni qo‘llash amaliyoti va boshqa korrupsiyaga qarshi talablar to‘g‘risida bilish;

- Olingan bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari, jumladan Universitet tizimining turli faoliyat sohalaridagi korrupsiya xavfini baholay olish qobiliyati, Universitet tizimida o‘rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amaliyotda qo‘llay olish. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy o‘qitish materiallariga kiritish uchun namunaviy mavzular ushbu Qo‘llanmaning 1-sonli ilovasida ko‘rsatilgan.

13. Universitet tizimining barcha xodimlari uchun mo‘ljallangan Universitet xodimlarining Odob-axloq qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va Universitet tizimida qabul qilingan odob-axloq tamoyillari va xulq-atvor qoidalari haqida yangi bilimlarni egallahni yoki mavjudlarini takrorlashni ta’minlashi kerak.

14. Korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish va Odob-axloq qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish natijalariga ko‘ra, Universitet tizimi xodimlari o‘rganilgan materialning o‘zlashtirilishi va tushunilishini, hamda olingan bilimlar va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini tekshirishga qaratilgan test sinovlaridan o‘tishi kerak.

15. Universitet tizimi xodimlari, agar savollarning kamida 80% iga to‘g‘ri javob bersalar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlaridan va Universitet tizimi xodimlarining odob-axloq Qoidalari bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80% dan kamroq iga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa, u sinovlarni muvaffaqiyatsiz topshirgan kunidan boshlab 5 ish kuni ichida qayta sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

16. Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlarni egallovchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv mashg‘ulotlari Korrupsiyaga qarshi umumiyligi o‘qitishdan tashqari o‘tkaziladi (qo‘shimcha ravishda).

17. Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Me’yoriy-huquqiy nazorat bo‘limi tomonidan / koordinatorlar tomonidan / korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar tomonidan Xodimlar boshqarmasi (bo‘limi) bilan birgalikda, hamda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish jadvali bilan birga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi korrupsiya xavflarini baholash uslubiga muvofiq ravishda ishlab chiqiladi.

18. Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlarni egallovchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv mashg‘ulotlari quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan muayyan vazifalar / ishlarda korrupsiya xavflarini aniqlash va minimallashtirish usullari haqidagi;

- Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan muayyan vazifalar va ishlarda korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari va turlari haqidagi;

- Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan muayyan vazifalar va ishlarga aloqador bo‘lgan uchinchi shaxslar bilan o‘zaro munosabat olib borishda korrupsiyaga qarshi kurashish talablari haqidagi;

- Korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan muayyan vazifalarni bajarishda qo‘llaniladigan qo‘shimcha talablar va tartiblarni o‘z ichiga olgan ichki hujjatlar haqidagi.

19. Universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv mashg‘ulotlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi mutaxassislarini jalg qilish yo‘li bilan kamida ikki yilda bir marta malaka oshirish, shuningdek, bunday o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etilgan treninglarda ishtiroy etish shaklida o‘tkaziladi.

20. Universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimning ishlashi va rivojlanishiga mas’ul bo‘lgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlarni, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini qurish va davlat organlarida, hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish sohasidagi yetakchi xalqaro usullarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi kerak.

21. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalarining 19-bandida ko‘rsatilgan malaka oshirish va mashg‘ulotlarda ishtirok etish 2 (ikki) yilda kamida 40 (qirq) soatni o‘z ichiga olishi kerak.

6-bob. O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish vaqtлari va davriyligi

22. Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va Universitet tizimining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasidagi o‘qitishdan, shuningdek uchinchi shaxslar vakillari ishtirokida o‘tkaziladigan qo‘shma konferentsiyalar, uchrashuvlar, ilmiy kengashlardan tashqari amalga oshiriladi.

23. Universitet tizimi xodimlari yiliga kamida bir marta odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘tishlari kerak.

24. Universitet tizimi xodimlari quyidagi holatlarda yiliga bir martadan ortiq ravishda korrupsiyaga kurashish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘tishlari kerak:

- xodim korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimda faoliyat yuritsa;
- lavozimga tayinlanish va rotatsiyadan so‘ng, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiya xavfiga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatiga kirsa;
- Universitet tizimida korrupsiya harakatlarining ro‘y berishi holatlari yoki bajarilayotgan ishlar / jarayonlarning korrupsiya xavfi darajasi oshgani aniqlanganda;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri, uning o‘rinbosarlari, hududiy boshqarmalari va tasarrufidagi markazlar va muassasalar rahbarlarining qarori bilan.

25. Universitet tizimiga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimiga o‘tkazilgan xodimlar ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimiga o‘tgan kundan boshlab 30 kun ichida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlaridan va Universitet tizimidagi xodimlarning odob-axloq qoidalari bo‘yicha umumiy o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘tishi shart (batafsil ma’lumot uchun mazkur Uslubiy ko‘rsatmalarining 11-15-bandlariga qarang).

Kadrlar boshqarmasining (bo‘limining) mas’ul xodimi xodimlarning ishga qabul qilingan, yangi lavozimiga o‘tkazilgan kunidan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmagan holda, ularga kunduzgi/masofaviy tartibda o‘tkaziladigan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini va Universitet tizimi xodimlarini odob-axloq qoidalari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tayinlashi (jumladan, onlayn-treninglarga havolalar yoki o‘quv materiallari yuborishi/kunduzgi mashg‘ulotlardan o‘tish uchun guruhga qo‘shishi va uning o‘tkazilish vaqtini haqida ma’lumot yuborishi) va undan o‘tish zarurati haqida tegishli xodimlarni xabardor qilishi shart.

O‘qish sanasini belgilashda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan yillik o‘quv jadvali, guruhda bo‘sh joylarning mavjudligi (kunduzgi mashg‘ulotlari uchun) va ushbu bobning 22-23-bandlarida ko‘rsatilgan o‘qish muddatlari va davrlariga amal qilish zarurligi hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkaziladigan umumiy o'quv mashg'ulotlari va Universitet tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari bo'yicha o'tkaziladigan umumiy o'quv mashg'ulotlari Kadrlar boshqarmasi (bo'limi) mas'ul xodimi tomonidan barcha xodimlar uchun davriy ravishda, yiliga kamida bir marta tayinlanadi.

26. Xodim korrupsiya xavfiga ko'proq moyil bo'lган lavozimda (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsiya xavfini baholash uslubiga muvofiq) ishlasa yoki xodim mana shunday lavozimga tayinlansa korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlaridan o'tish (batafsil ma'lumot uchun mazkur Metodik ko'rsatmalarining 16-18-bandlariga qarang), Vazir / Universitetning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalar rahbarlari tomonidan tasdiqlangan odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yillik o'quv jadvallarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

27. Kadrlar boshqarmalari (bo'limlari) har yili odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv jadvallarini tuzadilar (me'yoriy-huquqiy nazorati bo'limi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatorlar / mas'ul shaxslar ishtirokida) va ularni 31 dekabrgacha Vazir / Universitetning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalar rahbarlariga tasdiqlash uchun taqdim etadilar.

Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish jadvallarini tuzishda xodimlarning oldingi o'quv mashg'ulotlaridan o'tgan sanalari hisobga olinadi.

Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'qitish jadvallarida o'quv kursining nomi, sanasi, shuningdek, o'quv mashg'ulotlari tayinlangan lavozimlar ko'rsatilishi shart.

Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tasdiqlangan jadvalga muvofiq, Kadrlar boshqarmalari (bo'limlari) ning mas'ul xodimlari, xodimlarga o'quv mashg'ulotlaridan o'tish zarurligi haqida o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan kamida 10 ish kuni oldin elektron pochta orqali xabarnoma yuborishi yoki boshqa yo'l bilan ularga xabar berishi shart. Agar belgilangan muddat ichida o'quv mashg'ulotlaridan o'tishning imkonи bo'lmasa (kunduzgi ta'lim uchun, mavsumiy yuklamaning ko'pligi, kasallik ta'tili, rejali ta'til kabi sabablar yuzasidan), o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan kamida 5 (besh) kun oldin, xodim o'qishni boshqa sanaga o'tkazish maqsadida Kadrlar boshqarmalari (bo'limlari)ni xabardor qilishi shart.

28. Universitet tizimida korrupsiya harakatlari aniqlangan holatda yoki Vazirning qarori bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tayinlanganda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv mashg'ulotlaridan o'tish Vazir yoki Universitetning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalar rahbarlari farmoyishlari va buyruqlarida belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

29. Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qish kunduzgi tartibda, onlayn tartibda yoki xodimlar tomonidan darslarni avtomatik kuzatib borish va bilimlarni nazorat qilish funktsiyasiga ega avtomatlashtirilgan masofaviy o'qitish platformasidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarning barcha xodimlari ko'rsatilgan platformadagi mashg'ulotlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

7-bob. O'quv mashg'ulotlaridan o'tish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

30. Kadrlar boshqarmalari (bo'limlari) Universitet tizimi xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv mashg'ulotlaridan o'tishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va har chorakda uni huquqiy-me'yoriy nazorat bo'limiga yoki hududiy boshqarmalar yoki bo'ysunuvchi markazlar va muassasalardagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatorlar / mas'ul shaxslarga taqdim etadi.

Me'yoriy-huquqiy nazorat bo'limi yoki korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha koordinatorlar / mas'ul shaxslar olingen ma'lumotlarni (shu jumladan, o'quv mashg'ulotlaridan o'tish intizomi, xodimlar uchun eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan mavzular va test savollari, shuningdek (imkon qadar) Universitet tizimida o'tkazilgan mashg'ulotlar borasidagi qayta aloqa bo'yicha) tahlil qiladilar va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi kurash tizimining ishlashi va rivojlanishi to'g'risidagi muntazam hisobotga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallarini to'g'rilanishini (agar kerak bo'lsa) ta'minlaydilar.

31. Agar xodim belgilangan muddat ichida o'quv mashg'ulotidan yoki uning yakuni bo'yicha tayinlangan test sinovlaridan o'tmagan bo'lsa, tegishli Kadrlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i xodimga nisbatan tegishli qaror qabul qilinishi uchun bu haqda xodimning rahbariga xabar beradi (elektron pochta orqali).

32. Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jadvali, davomat xujjatlari, test natijalari, o'quv mashg'ulotlaridan o'tganlikni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Kadrlar boshqarmasida (bo'limlarida) saqlanishi shart.

33. Universitet tizimi xodimlarining tashqi o'quv mashg'ulotlaridan o'tganliklarini tasdiqlovchi sertifikatlar / boshqa tasdiq xujjatlari nusxalari ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan muddatda xodimlarning shaxsiy xujjatlari ichida saqlash uchun Kadrlar boshqarmasiga (bo'limlariga) beriladi.

8-bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish kiritish tartibi

34. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, Universitet tizimining ichki hujjatlarida va/yoki odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yetakchi xalqaro tajribalarda yoki korrupsiyaga qarshi kurashish

bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda mavjud ichki hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradigan o‘zgartirishlar bo‘lganda qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalarga o‘zgartirish kiritish uchun javobgarlik me’yoriy-huquqiy nazorat bo‘limi zimmasida bo‘ladi.

9-bob. Javobgarlik

35. Xodimlar, lavozimidan, xizmat muddatidan, maqomidan va boshqa omillardan qat’i nazar, Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar tamoyillari va talablariga rioya etishlari uchun shaxsan javobgardirlar.

Buxoro davlat universiteti, uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnomaga ilova

Universitet tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish umumiy o‘qitishning TAXMINIY MAVZULARI

Mavzu	Komponentlar
Korrupsianing tabiatи	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsianing ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyat.
Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Universitedagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora-tadbirlar sharhi; Universitedagi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyat va vakolatlari; Ma’muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma’muriy to‘siq va byurokratizmni bartaraf etish; Korrupsiyaviy harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar; Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo‘riqnomalar, xabarlar ko‘rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar	Universitedai xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari; Nazorat-ruxsat berish funktsiyalari va tartib-taomillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Sovg‘alar va ishbilarmonlik mehmono‘stligi belgilari berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqalar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xodimlarni Universitetga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xaridlarni amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli xizmat turlari, funktsiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Binolarni ijaraga berish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; O‘zaro hamkorlik va tasarrufiy Universitetlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;

	Tanlovlар bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli hujjat turlari ekspertizasini o‘tkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Universitet faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.
Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik	Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik; Korrupsiyaviy xarakatlar uchun jinoiy javobgarlik; O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari bo‘yicha sud amaliyoti sharhi
Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyatni roli	Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida; Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish; Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish; Fuqarolik jamiyatni institutlarining Universitet bilan o‘zaro hamkorligi.